



O'ZBEKISTON VA TURKIYA DAVLATLARI O'RTASIDA TA'LIM SOHASIDA HAMKORLIK

Akbarov Bunyodjon Ilyosjon o'g'li

Mustaqil tadqiqotchi ilyosjonovmuhammadbilol@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada globallashuv sharoitida O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi ta'lim hamkorligining ahamiyati yoritilgan. Unda ikki davlat o'rtasidagi tarixiy-madaniy rishtalarga tayangan holda oliy ta'lim, ilmiy tadqiqotlar, raqamli ta'lim va madaniy almashinuv sohalarida kengayib borayotgan hamkorlik tahlil qilingan. Qo'shma universitetlar, ilmiy loyihalar, talabalar va mutaxassislar almashinuvining kuchayishi ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida muhim omil sifatida ko'rsatib o'tilgan. Kelgusida raqamli platformalar, ilmiy markazlar va akademik dasturlarni rivojlantirish orqali hamkorlik yanada mustahkamlanishini mumkinligi ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston-Turkiya ta'lim hamkorligi, xalqaro ta'lim integratsiyasi, oliy ta'lim, qo'shma dasturlar, akademik almashinuv, ilmiy-tadqiqot hamkorligi, madaniy aloqalar, raqamli ta'lim, xalqaro universitetlar, strategik sheriklik, Turkiya Burslari, YÖK hamkorligi, ta'lim islohotlari, innovatsion loyihalar, qo'shma ilmiy markazlar.

Аннотация: В данной статье освещается важность образовательного сотрудничества между Узбекистаном и Турцией в условиях глобализации. В нем проанализировано расширяющееся сотрудничество в области высшего образования, научных исследований, цифрового образования и культурного обмена, основанное на историко-культурных связях между двумя странами. Усиление обмена совместными университетами, научными проектами, студентами и специалистами показано как важный фактор в процессе модернизации системы образования. Была отмечена возможность дальнейшего укрепления сотрудничества посредством развития цифровых платформ, научных центров и академических программ в будущем.

Ключевые слова: Узбекско-турецкое образовательное сотрудничество, международная образовательная интеграция, высшее образование, совместные программы, академический обмен, научно-исследовательское сотрудничество, культурные связи, цифровое образование, международные университеты, стратегическое партнерство, турецкие стипендии, сотрудничество МОК, образовательные реформы, инновационные проекты, совместные научные центры.

Abstract: This article highlights the importance of educational cooperation between Uzbekistan and Turkey in the context of globalization. It analyzes the expanding cooperation in the fields of higher education, scientific research, digital education, and cultural exchange, based on the historical and cultural ties between the two countries. An important factor in the process of modernizing the education system is the strengthening of the exchange of joint universities, scientific projects, students, and specialists. It was



noted that cooperation can be further strengthened in the future through the development of digital platforms, research centers, and academic programs.

Key words: *Uzbek-Turkish educational cooperation, international educational integration, higher education, joint programs, academic exchange, research cooperation, cultural ties, digital education, international universities, strategic partnership, Turkish Scholarships, NGO cooperation, educational reforms, innovative projects, joint research centers.*

KIRISH

Globallashuv jarayonlari kuchaygan bugungi sharoitda ta'lim sohasidagi xalqaro hamkorlik davlatlarning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlashda asosiy rol o'ynamoqda. Bilim va texnologiyalar tez sur'atlar bilan o'sib borayotgan bir vaqtda, xalqaro ta'lim integratsiyasi nafaqat ma'lumot almashish, balki innovatsion loyihalarni birgalikda amalga oshirish uchun ham keng imkoniyatlar yaratmoqda. O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi munosabatlar esa qadimiy tarixiy va madaniy rishtalarga asoslangan bo'lib, hozirgi kunda strategik sheriklik darajasiga yetgan.

So'nggi yillarda ikki mamlakat ta'lim tizimlarining o'zaro bog'lanishi sezilarli darajada rivojlandi. Bu hamkorlik oliy ta'lim, kasb-hunar ta'limi, ilmiy izlanishlar, madaniy va raqamli ta'lim yo'nalishlarida keng ko'lamli tashabbuslarni o'z ichiga olmoqda. Masalan, 2024-yilda Istanbulda o'tkazilgan Turkiya-O'zbekiston ta'lim forumi doirasida O'zbekistonning 60 dan ortiq oliy ta'lim muassasalari Turkiya universitetlari bilan 150 ga yaqin hamkorlik memorandumini imzolagan, bu esa qo'shma o'quv dasturlari va ilmiy loyihalarni rivojlantirishga zamin yaratdi.

O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi ta'lim hamkorligi mustahkam qonunchilik bazasiga ega. O'zbekiston Respublikasi tomonidan qabul qilingan hujjatlar, jumladan, Prezident farmonlari va hukumat qarorlari bu jarayonni qo'llab-quvvatlamoda. 2019-yilda tasdiqlangan PF-5847-son Farmon "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"ga asosan, oliy ta'limni to'liq qamrab olish, xalqaro reytinglarda O'zbekiston universitetlarini yuqori pog'onalarga olib chiqish va qo'shma ta'lim dasturlarini joriy etish kabi maqsadlar belgilandi⁸⁸. Bu hujjat Turkiya bilan qo'shma filiallar va Dual Degree dasturlarini tashkil etish uchun muhim asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Shuningdek, 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun (O'RQ-637) ta'lim tizimining 32 ta asosiy printsiplarini belgilab, xorijiy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni, qo'shma fakultetlar va filiallarni ochishni qo'llab-quvvatlaydi⁸⁹. Qonunning 9-moddasi xorijiy muassasalar bilan integratsiyaga ruxsat bersa, 11-moddasi xorijiy mutaxassislar jalb qilish va birgalikdagi ilmiy tadqiqotlarni olib borish imkoniyatini yaratadi. Bunga qo'shimcha ravishda, 2025-yilda O'zbekiston

⁸⁸ O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. 2019. <https://lex.uz/ru/docs/-4545884>

⁸⁹ O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. 2020. <https://lex.uz/docs/5013007>



Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan Turkiya universitetlari bilan birgalikda professor-o'qituvchilar uchun maxsus malaka oshirish dasturlari joriy etilgani hamkorlikni yanada mustahkamladi, bu dasturlar Istanbul universiteti va boshqa markazlarda o'tkazilmoqda.

Ikki davlat o'rtasidagi oliy ta'lim hamkorligi strategik sheriklikning muhim qismini tashkil etadi. O'zbekiston oliy ta'lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirish va modernizatsiya qilishda Turkiya tajribasidan keng foydalanilmoqda. 2022-yilda O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Turkiya Yuksak O'quv Kengashi (YÖK) o'rtasida hamkorlik memorandumi imzolangan bo'lib, bu ikki mamlakatning oliy ta'lim sohasidagi integratsiyasini yangi bosqichga olib chiqdi⁹⁰. Bu hujjat qo'shma dasturlarni joriy etish, talabalar va o'qituvchilar almashinuvini tashkil etish, ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirishni nazarda tutadi.

Hozirgi kunda O'zbekistonda bir qancha Turkiya oliy ta'lim muassasalari filiallari muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Jumladan, Toshkentda Turkiya Iqtisodiyot va texnologiya universiteti (TOBB ETU) filiali ochilgan bo'lib, u zamonaviy menejment, iqtisodiyot va muhandislik yo'nalishlarida talabalarni tayyorlamoqda. Bundan tashqari, Buxoro Abu Ali ibn Sino davlat tibbiyot instituti Turkiya universitetlari bilan hamkorlikda tibbiyot tajribasini o'rganish uchun yangi fakultetlar tashkil etdi, bu esa 2025-yilda imzolangan protokol asosida amalga oshirilmoqda va tibbiyot sohasida qo'shma tadqiqot loyihalarini o'z ichiga oladi. Yana bir muhim loyiha 2025-yilda Toshkentda ochilishi rejalashtirilgan Xalqaro Turk Davlatlari Universiteti bo'lib, unda Turkiya oliy ta'lim muassasalarining o'quv dasturlari asos qilib olinib, muhandislik, IT, tibbiyot va iqtisodiyot kabi sohalarda xalqaro standartlarga mos ta'lim berilishi maqsad qilingan.

Talabalar almashinuvi dasturlari ham faol rivojlanmoqda. Turkiya hukumati tomonidan ajratilgan grantlar orqali har yili minglab o'zbekistonlik talabalar Turkiya universitetlarida tahsil olmoqda. Masalan, "Türkiye Bursları" dasturi orqali o'zbek yoshlari bakalavriat, magistratura va doktorantura bosqichlarida bepul o'qish imkoniyatiga ega.

Shuningdek, Turkiya universitetlari O'zbekiston bilan qo'shma magistratura va doktorantura dasturlarini amalga oshirmoqda. Ilmiy hamkorlik ham muhim o'rin tutmoqda. Energetika, axborot texnologiyalari, tibbiyot va muhandislik yo'nalishlarida birgalikdagi loyihalar, jumladan, Turk Davlatlari Tashkiloti (TDT) doirasidagi TURKUNIB ittifoqi orqali amalga oshirilmoqda.

Hamkorlik ta'lim bilan cheklanib qolmay, madaniy va gumanitar sohalarni ham qamrab olmoqda. Bu aloqalar ikki xalqning qadimiy madaniy bog'lanishlariga asoslangan va bugungi kunda yanada kengaymoqda. Turkiyaning Yunus Emre instituti turk tili va madaniyatini O'zbekistonda targ'ib qilishda muhim rol o'ynamoqda. Institut tomonidan o'tkazilayotgan kurslar talabalar va keng jamoatchilik orasida katta

⁹⁰ O'zbekiston va Turkiya ta'limdagi hamkorlik imkoniyatlari kengaymoqda. Istanbul, 2024-yil 4-oktabr. TRT Haber.



qiziqish uyg'otmoqda⁹¹. Har yili yuzlab yoshlar turk tilini o'rganib, Turkiyada ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lmoqda.

Madaniy hamkorlik doirasida "Turkiya madaniyat kunlari" va "Turk xalqlar ilmiy forumi" kabi tadbirlar muntazam o'tkazilmoqda, ularda teatr namoyishlari, kino festivallari, milliy hunarmandchilik ko'rgazmalari va musiqa kechalari tashkil etiladi. Bunga qo'shimcha, Istanbul Gelisim universiteti va O'zbekiston Renessans ta'lim universiteti o'rtasida 2024-yilda imzolangan hamkorlik protokoli madaniy va akademik loyihalarni birgalikda rivojlantirishni nazarda tutadi. Ilmiy-tadqiqot sohasida ham o'sish kuzatilmoqda: turkologiya, tarix va filologiya yo'nalishlarida qo'shma konferensiyalar o'tkazilib, ilmiy maqolalar chop etilmoqda. Raqamli platformalardan foydalanish ham yo'lga qo'yilgan, masalan, onlayn o'quv dasturlari va virtual madaniyat festivallari o'tkazib kelinmoqda.

O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi ta'lim hamkorligi istiqbollari nihoyatda keng bo'lib, kelgusida bu hamkorlik ikki davlatning ilmiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishiga katta hissa qo'shadi. Asosiy e'tibor oliy ta'limni modernizatsiya qilish, raqamli ta'lim tizimini rivojlantirish va qo'shma ilmiy markazlarni yaratishga qaratilmoqda.

Birinchidan, raqamli ta'lim platformalarini rivojlantirish hamkorlikning ustuvor yo'nalishi⁹². Onlayn kurslar va qo'shma elektron kutubxonalarni yaratish loyihalari ikki davlat talabalari uchun qulayliklar yaratadi. Pandemiya keyingi davrda bu jarayon yanada dolzarb bo'lib, ikki tomon ham IT infratuzilmasiga sarmoya kiritmoqda. Masalan, 2025-yilda TDT doirasidagi Orhun almashinuv dasturini kengaytirish rejalashtirilmoqda.

Ikkinchidan, qo'shma ilmiy-tadqiqot markazlari tashkil etish kun tartibida. Bu markazlar energetika, biotexnologiya, sun'iy intellekt va tibbiyot sohalarda innovatsion ishlanmalarni yaratishni nazarda tutadi. Grant dasturlari kengaytirilib, olimlar xalqaro loyihalarda ishtirok etadi.

Uchinchidan, talabalar va o'qituvchilar almashinuvini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. "Türkiye Bursları" grantlari soni oshiriladi, O'zbekiston esa o'z xalqaro dasturlarini rivojlantiradi.

To'rtinchidan, IT va innovatsion texnologiyalar yo'nalishida hamkorlik kuchaytiriladi. Turkiya IT parklarining tajribasi O'zbekistonga o'tkaziladi, qo'shma startup loyihalari amalga oshiriladi. Kelajakda qo'shma universitetlar soni ortib, ilmiy salohiyat oshiriladi. Umuman, bu hamkorlik nafaqat ta'lim tizimiga, balki iqtisodiyot va madaniyat rivojiga ta'sir etadi, Markaziy Osiyo mintaqasida integratsiyani jadallashtiradi.

Xulosa

O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi ta'lim hamkorligi strategik darajada bo'lib, tarixiy-madaniy aloqalarga asoslangan holda zamonaviy talablarga mos kelmoqda.

⁹¹ Turkiy tillar va madaniyat integratsiyasi bo'yicha hisobot. Istanbul: YEE Press, 2024. Yunus Emre Enstitüsü.

⁹² O'zbekiston va Turkiya ta'limdagi hamkorlik imkoniyatlari kengaymoqda. Istanbul, 2024-yil 4-oktabr. TRT Haber.



So'nggi yillarda amalga oshirilgan loyihalar ikki davlat ta'lim tizimlarini yaqinlashtirdi. Bu hamkorlik iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash, ilmiy salohiyatni oshirish va madaniy integratsiyada muhim rol o'ynamoqda. Qo'shma dasturlar va almashinuvlar innovatsion g'oyalarni tatbiq etishga yordam beradi, raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlaydi.

Kelgusida raqamli platformalar, ilmiy markazlar va yangi grant dasturlari orqali hamkorlik kengayadi, bu ikki davlat o'rtasida ta'lim tizimida yangi bosqichni ochadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.O'zbekiston Respublikasi. Ta'lim to'g'risida (O'RQ-637-son Qonun). Toshkent: Milliy ma'lumotlar bazasi. 2020.

2. O'zbekiston Respublikasi. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida (PF-5847-son Farmon). Toshkent:Prezident farmonlari to'plami, 2019.

3. TRT Haber. O'zbekiston va Turkiya ta'limdagi hamkorlik imkoniyatlari kengaymoqda. Istanbul, 2024-yil 4-oktabr.

4. Yunus Emre Enstitüsü. Turkiy tillar va madaniyat integratsiyasi bo'yicha hisobot. Istanbul: YEE Press, 2024.

5. Higher Education Council of Turkey(YÖK) .Annual report on international cooperation. Ankara: YÖK Press, 2024.

6. Bright Uzbekistan .O'zbekiston va Turkiya hamkorligi: yangi bosqich. Istanbul, 2025, yanvar.

Internet saytlar

1. dailysabah.com

2. yee.org.tr

3. trt.net.tr

4. gazeta.uz

5. lex.uz

6. <https://president.uz>